

**XORIJ NAVOIYSHUNOSLIGIDA  
HUSAYN BOYQARO ADABIY MAJLISLARINING O‘RGANILISHI**

**Elmira Hazratqulova<sup>1</sup>**

*Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori  
Toshkent, O‘zbekiston*

**E -mail: [e.xazratqulova@bk.ru](mailto:e.xazratqulova@bk.ru)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Kanadalik olim Mariya Sabtelning Husayn Boyqaro homiyligida ravnaq topgan Hirot adabiy muhitining tashkillanishi, unda ishtirok etgan shoirlarning shoirlik mahorati va hasbu holiga tegishli masalalar borasida olib borgan izlanishlari tahlil etiladi. Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhitining asosiy boshchisi va rivojlantiruvchisi sifati amir Alisher Navoiyning xizmatlari hamda bu she‘riyat davralarining asosiy ishtirokchilari haqida o‘z mulohazalarini bildirib o‘tgan. Mariya Sabtelning ilmiy tekshirish mezonida qiyosiy, tipologik tahlil usullaridan unumli foydalanilgan bo‘lib, bu usullar orqali o‘sha adabiy davrning manzarasini qaytadan yaratish va unga baho berish borasidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘ladi. Maqolada Mariya Sabtelning saroy adabiy majlislariga a‘zo bo‘lish va bu a‘zolikning shoirlar hayotiga, istedodiga ta‘siri haqidagi tahlillariga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, olimaning Temuriylar madaniy muhitiga nisbatan bergan xolis bahosi o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar madaniyati, adabiy majlis, she‘riy uslub, adabiy mahorat, adabiy janr.

**Abstract.** This article analyzes the organization of Herat literary environment, which flourished under the auspices of Husayn Boyqaro, the poets who participated in it, and the research conducted by the Canadian scientist Maria Sabtelny on issues related to the status of the poet. Amir Alisher Navoi, the main leader and developer of the literary environment of Husayn Boykara Palace, expressed his opinion about the services and the main participants of these poetry circles. The criteria of Maria Sabtelny's scientific investigation have effectively used comparative and typological analysis methods, which can be used in research to recreate the landscape of that literary period and evaluate it. The article focuses on Maria Sabtelny's analyzes of the membership of the palace literary meetings and the impact of this membership on the life and talent of poets, and the scholar's unbiased assessment of the cultural environment of the Timurids is analyzed.

**Key words:** literary collection, and, poetic style, literary skill, literary genre.

### **Kirish**

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir xorij olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning ilmiy ahamiyati borasida yurtimizdagi navoiyshunos olimlar salmoqli izlanishlar olib borilgan. Xususan, jahon kutubxonlari va muzeylarida saqlanayotgan Alisher Navoiy devonlarining noyob qo‘lyozmalari haqida, xorijiy navoiyshunoslik borasidagi tadqiqotlar haqida bir

qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini [ Навоий А. 2021.412.] namuna qilib ko‘rsatish mumkin.

Shu kabi tadqiqotlar doirasida yurtimiz olimlari va xorij olimlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarning bir-biriga aloqadorligini ta‘minlash hamda o‘zaro qiyoslanish kabi jihatlar bugungi ilmiy jamoatchilikning dolzarb masalalaridan biridir.

Alisher Navoiy ta‘siridagi adabiy muhit masalalarini kanadalik sharqshunos olimi Mariya Sabtelni o‘zining yuzlab maqolalarida ilmiy izchillik asosida o‘rganib chiqqan. Olimaning nomzodlik tadqiqoti “Temuriy hukmdor Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhiti va uning siyosiy ahamiyati” mavzusida [ Sabtelni. 1979.230.] yaratilgan bo‘lib, olimi Kanadaning Toronta universitetida faoliyat olib boradi. Mariya Sabtelni bu tadqiqot ishida Temuriylar davri adabiy muhitining yutuqlari va uning moddiy-ma‘naviy asoslariga e‘tibor qaratadi. Olima tadqiqot uchun Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridan birlamchi manba sifatida foydalangan bo‘lib, yondosh manbalar uchun Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Fahriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Som Mirzoning “Tuhfai Somiy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye‘ ul-vaqoye’ ” kabi asarlarlaridan unumli foydalangan. Demak, olimaning tadqiqotlari uchun asosan tazkiralari manba sifatida xizmat qilgan. O‘zbekistonda bu davr tazkiralari haqida ham bir qancha izlanishlar olib borilganini kuzatish mumkin. [ Шайхзода М. 1972.372.]

Tadqiqotning uchinchi bobi “Hirotda shoirlar va she‘riyat. Mavzu va manbalar bilan bog‘liq muammolar. Shoirlar va she‘riyatga munosabat” deb nomlanadi. Mazkur bobda olimi e‘tibor qaratgan masalalardan biri – Hirotda adabiy muhitining rivojida muhim o‘rin tutgan shoirlarning maqomini aniqlash, ularning Husayn Boyqaro majlislaridagi obro‘-e‘tiborini, she‘riy mahoratini taqqoslash yo‘lidan boradi.

Mariya Sabtelni “Majolis un-nafois” tazkirasidagi ma‘lumotlardan eng asosiy mezon sifatida Xuroson hududida tilga olingan shoirlarning qanchalik saroy adabiy majlislariga aloqadorligi masalasini oydinlashtirishga e‘tibor qaratadi: “Majolis un-nafois” va boshqa tazkiralarda shoirning ulug‘vorlik darajasi yoki eng muhimi, Alisher Navoiy rahbarligidagi saroy shoirlari tomonidan qabul qilinganligi va o‘sha doiraga mansubligi haqidagi ma‘lumot aniq ko‘rsatilmagan. Bobur saroy doirasiga mansub bo‘lgan shunday shoirlardan o‘n beshtasini sanab o‘tgan, Xondamir o‘n ikkitasini, Davlatshoh Samarqandiy yettitasini, Muhammad Haydar [ Мусурмонов Э. 2020.145.] ham ikkita muallif tilga olgan shoirlarning ko‘pini, shu jumladan, Som Mirzo Bobur keltirgan ro‘yxatdan o‘n ikki nafarini tilga oladi. Shunday qilib, ushbu ro‘yxatlar va ko‘pchilik mualliflar tomonidan tez-tez tilga olingan shoirlarning

nomlari asosida Husayn Boyqaro saroyida Alisher Navoiy tuzgan adabiy davraning o‘zagini qaytadan tiklash mumkin [ Sabtelni. 1979.76.]

O‘zbekistonda Husayn Boyqaro majlislari, umuman olganda, temuriylar davri adabiy majlislarining ahamiyati haqida ko‘plab izlanishlar [ Хайитметов А. 1996.145.] olib borilgan bo‘lib, ulardagi asosiy masalalar bu majlislarning adabiy-estetik vazifalariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotchi sifatida Mariya Sabtelni Hirot adabiy manzarasining eng asosiy rivojlantiruvchisi va ma‘nan yo‘lboshlovchisi sifatida Alisher Navoiyni e‘tirof etadi, lekin saroy shoirlarining sonini aniqlash va ularning she‘riyat davralaridagi mavqei hamda shoirlik mahorati haqidagi munosabatlarni jamlashda birlamchi manba “Majolis un-nafois”dan ko‘ra Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”siga tayanadi. Chunki “Boburnoma”da aynan Husayn Boyqaro davridagi shoirlar guruhi alohida tasniflangani va ularning ro‘yxati nisbatan uzun bo‘lgani uchun ham olim ana shunday qarorga keladi: “Bobur tuzgan ro‘yxat eng uzun va o‘ziga xos bo‘lgani uchun shoirlarning saroy adabiy davrasiga a‘zolidini aniqlashga asos bo‘ladi. Ko‘rsatilgan boshqa manbalar ushbu ro‘yxatga qarshi tekshiriladi va farqlar qayd etiladi” [ Sabtelni. 1979. 76.] .

Haqiqatdan ham, “Majolis un-nafois”da tasniflangan har bir majlislarning nomlanishiga qarab saroy shoirlarining safini to‘liq tiklash imkoni yo‘q. Sababi muallif bu asarga jo‘g‘rofiy jihatdan kengroq maydonni qamrab olgan shoirlar hasbu holini kiritgan bo‘lib, ularning aynan qancha miqdordaligini saroy davrasiga mansubligini ajratib olish bugungi kun tadqiqotchisi uchun mushkullik tug‘diradi.

“Boburnoma”ning temuriy hukmdorlar uchun belgilangan sahifalarida Husayn Boyqaro ta‘rifining o‘zgachaligi shundaki, boshqa hukmdorlarning ta‘rif matnlaridan o‘zining kattaligi va tasniflangan guruhlarining ko‘pligi ajralib turadi. Mariya Sabtelni ham Husayn Boyqaro madaniy muhitining taraqqiy etish omillarini o‘rganish asnosida mazkur manbani asosiy o‘ringa qo‘ygani bejiz emas. Zero Boburning qaydlarida shoirlarning portretini tasvirlashga munaqqid nigohi bilan yondashilgan.

Mariya Sabtelni bu kabi tarixiy asarlarning tasniflangan guruhidan faollik bilan tilga olingan va ta‘riflangan shoirlarning biografik ma‘lumotlariga e‘tibor qaratadi hamda Husayn Boyqaro saroyidagi o‘n ikki shoirning she‘riy mahorati va o‘z davri adabiy an‘analariga ergashgani yoki ma‘lum bir ijodiy yangilik yaratganligi kabi jihatlarni o‘rganib chiqadi. Olimaning bu madaniy muhitga tegishli bo‘lgan yana bir omilni tadqiq etishi e‘tiborga loyiq. Mariya Sabtelni bu shoirlarning nafaqat Husayn Boyqaro saroyidagi she‘riyat davralarini ravnaq topishdagi ishtirokini balki, ularning

keyingi istilochilar Safaviylar va Shayboniylar davridagi taqdiri qanday kechganligini savol ostiga olgani aktual masalalar sirasiga kiradi.

Mariya Sabtelni o‘z tahlillaridan kelib chiqqan holda quyidagi shoirlarni Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhitining ishtirokchilari sifatida talqin etadi:

Birinchi shoir<sup>2</sup> – Shayxim Suhayliy (vaf. 1502) Mariya “Boburnoma” asosida Suhayliyning beklar va shoirlar tegrasida eng birinchi bo‘lib, tilga olinganiga e‘tibor qaratadi. Bu shoir “Boburnoma” asarining Husayn Boyqaroning umarolari davrasi ajratilgan sahifasida Shayxim Suhayliy nomi bilan tilga olingan. Biroq boshqa beklarning Husayn Boyqaroga qilgan xizmatlari, sadoqati, o‘ziga xos fazilatlar va qusurlari haqida ma‘lumotlar berilgan bo‘lsa, Shayxim Suhayliyning beklik sifati emas, shoirlik mahoratiga diqqat qilingan. Bu yerda misol qilib keltirilgan mashhur suhbat Abdurahmon Jomiy va Shayxim Suhayliy o‘rtasidagi mashhur bayt haqida edi:

Shabi g‘am girdbodi oham az jo burd gardunro,

Furo‘ burd ajdahoi seli ashkam rub‘i maskunro. [Бобурнома. 2002.134]

Mazmuni: G‘amli kechalarda ohimning quyuni osmonni o‘rnidan qo‘zg‘atdi, ko‘z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi (tarj.P.Shamsiyev).

Bobur aynan mana shu baytni eshitib, unga kinoyali savol bergan quvnoq tabiatli Jomiyni eclaydi: “Mirzo, she‘r aytasiz yo odam qo‘rqutasiz?” Bobur Jomiyning yengil hajviy tanbehi ila Shayxim Suhayliy ijodida mubolag‘a san‘atining o‘ta bo‘rtib qo‘llanishi oqibatida san‘atga xos joziba yo‘qolganini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Mazkur adabiy davra manzarasidan Jomiyning ustodlik siyratida donishmandlik va zakiylik sifatleri uyg‘unlashganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Alisher Navoiy ham “Majolis un-nafois”da Shayxim Suhayliyni uchinchi majlisda hazrat Abdurahmon Jomiydan keyingi ikkinchi navbatda ta‘riflagan edi. Bu tazkirada uning nomi Amir Shayxim Suhayliy deb tilga olingan.

Alisher Navoiy Shayxim Suhayliyni uzoq yillardan beri temuriylar saroyida xizmat qilishini, avvaliga Abu Said mirzo huzurida, keyinchalik Husayn Boyqaro xizmatida bo‘lganiga ham yigirma yildan oshganini ta‘kidlaydi. Uning ijodi namunalari sifatida “Layli va Majnun” masnaviysi, “Iydiya” qasidasidan baytlar berib o‘tadi. Keltirilgan misollarning aksariyati forsiyzabon she‘rlardir. Shu bilan birga “Boburnoma”da lavha keltirilgan kinoyali suhbat orqali anglashilgan tasvir usuli: oshiqning holini mubolag‘ali tarzda bayon etilishi shoirning turkiy tilli she‘rlaridan keltirilgan baytlarida ham seziladi:

Zuhd eli tasbih deb hayron qolur avbosh aro,

<sup>2</sup>Mariya Sabtelni tayangan “Majolis unnafois”, “Boburnoma” va boshqa manbalarda ham Abdurahmon Jomiy shoirlarni ng saromadi sifatida ta‘riflagan. Olima Abdurahmon Jomiy siymosiga alohida faslni bag‘ishlagani uchun mazkur maq olada o‘rganilayotgan fasl doirasidagi tahlillarni berishga harakat qildik.

Rishtai jismimni ko‘rsa qatra-qatra yosh aro. [Навоий.1997.40.]

(Taqvo ahli sayoq, daydilar qatorida mening ipdek ingichka tortib ketgan tanamni qatra-qatra ko‘z yoshlarim orasida ko‘rib, tasbih donalari, deb o‘ylab hayratda qoladi.) [talqin bizniki – E.H.]

Davlatshoh Samarqandiy va Som mirzo tazkiralarda uni Shayx Ahmad Suhayliy [ Самарқандий Д. 1981.197.] tarzida nom bilan ataganlar. Samarqandiyning aynan Shayx degan so‘zni ism sifatida yoki nisba sifatida qo‘llangani aniq. Lekin Suhayliy taxallusining ustozini Ozariy tomonidan tavsiya etilgani haqida har ikkala tazkirada xabar berilgan. Davlatshoh Samarqandiy uning turkiy devoni [ Навоий. 1997.130.] haqida xabar berish bilan birga uning turkiy g‘azallaridan namunalar ham berib o‘tadi. Jumladan, tazkirada uning

Ishqda men komilu, Farhodu Majnun shuhrati,  
Olloh-olloh, ne kishilarga bu ishning himmati.  
matla’li g‘azali uning mahoratining belgisi sifatida keltirib o‘tilgan.

Mariya Sabtelni uning temuriylar davridagi amaliy va ijodiy faoliyati haqida gapirar ekan, uning keyingi hukmron sulola shayboniylarga xizmat qilgani yoki qilmaganiga e‘tibor qaratadi:

“Shayxim Suhayliy temuriylar qulagandan keyingi faoliyati to‘g‘risida hech narsa ma’lum emas, chunki manbalarda uning Shayboniylar davridagi Hirot adabiy majlislarida qatnashgani haqida hech qanday ma’lumot aytilmaydi”. [ Sabtelni.1979. 76.]

Aytish joizki, Shayxim Suhayliyning vafot yili “Majolis un-nafois”ning zamonaviy nashrida 1502 deya ko‘rsatilgan, shayboniylarning Xurosonni to‘liq egallashi “Boburnoma”ning 1507-1508 yillar voqealari bayoniga to‘g‘ri keladi. Demak, Shayxim Suhayliy temuriylar hukmronligining so‘nggi yillarida, to‘g‘rirog‘i, Alisher Navoiy vafotidan bir yil o‘tiboq vafot etgan bo‘lib chiqadi. Lekin Mariya Sabtelni o‘z tadqiqotida “Tuhfai Somiy”ga [Sabtelni. 1979.182.] tayangan holda uning vafotini 1512 yil deya ko‘rsatadi. Davlatshoh Samarqandiy tazkirasida ham uning vafoti aynan 1512 yil deb ko‘rsatilgan. Agar bu sanaga tayanilsa, uning Shayboniylar Xurosonni egallagandan (1507y) keyingi besh yillik hayoti qayerda kechgani noma’lumligicha qolmoqda. Hozirda Suhayliyning forsiy devoni Tojikistonda Sharqshunoslik institutida, “Layli va Majnun” dostoni esa Bodleanra Oksford kitobxonalarida saqlanadi. [ Навоий. 1997.139.]

Olima shoirning she’riy mahorati haqida va she’riyat davrlarida tutgan o‘rni haqida gapirar ekan, uning obro’si balandligini nasl-nasabi bilan bog‘liq, deya xulosa chiqaradi: “Suhayliy she’riy ijod namunalarining o‘rtamiyona shoirlardan ajralib

turmasligi, ammo tazkiralarda bunchalik obro‘li o‘ringa ega bo‘lishining sababi uning shonli urug‘dan amir bo‘lganligi va Alisher Navoiyga yaqinligi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak”. [Sabtelni. 1979.77.]

Bizningcha, Shayxim Suhayliyning Alisher Navoiy tomonidan yuksak ehtirom bilan tilga olinishiga uning shoirligi bilan birga insoniy fazilatlariga bo‘lgan hurmati ham sabab bo‘lgan. Shayxim Suhayliyning ilm-fan egalariga, shoirlarga homiylik qilgani haqida ham tarixiy asarlarda ma‘lumotlar bor. Jumladan, u Husain Voiz Koshifiyning “Anvori Suhayliy” asarining yaralishiga rahnomolik qilgan.

Ikkinchi shoir – Hasan Ali Jaloir-Tufayliy (vaf 1519). Bu shoirni olimi Hirotda ommalashgan nomi bilan Hasan Ali Jaloir nomi bilan atagan. Aslida uning ismi Husayn Ali Jaloir bo‘lgan, lekin Hasan nomi mashhurroq bo‘lgani haqida Bobur xabar beradi va shoirning nomi “Boburnoma”ning Husayn Boyqaro amirlari guruhi tarkibida tilga olinadi. “Majolis un-nafois”da uni Mir Husayn Jaloir nomi bilan beshinchi majlisda ikkinchi navbat bilan ta’riflab o‘tadi.

Mariya Sabtelni uning Tufayliy taxallusi bilan ijod qilishini aytib, uning iste’dodi asosan qasida janriga namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi: “Hasan Ali Jaloirning qasida janrida mahoratli bo‘lgani aytiladi”. [Sabtelni. 1979. 77.] Mariya Sabtelni Boburning Hasan Ali Jaloir haqidagi tanqidiy mulohazasini ham aynan keltirib o‘tadi. Ya’ni uning hamisha nard va qimor o‘ynashi haqidagi ma‘lumoti shoirning hasbu holini yaqindan tasvirlash hisoblanadi. Olima uning temuriylardan hukmronligi tugagach, safaviylar amiri Najmiddin Soniy xizmatiga borganini ham eslatib o‘tgan. [Sabtelni. 1979. 77.] Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da uning hukumatga kichik aybi tufayli yomon ko‘rinib qolgani, bu holatdan tinchini yo‘qotgani haqida yozadi: “Falakning andinkim, fazl ahlig‘a hasadi bor, bir taqdir bila oni dargohi falak ishtibohdin yiroq solibdur, aning xud bu qayg‘udan kunduz qarori va kecha uyquasi yo‘qtur. Umid ulkim, podshohona lutf va karam dastgiri bo‘lg‘ay. [Навоий. 1997. 81.] Shuningdek, Alisher Navoiyning uning kishilik nuqsonini “mufrit lavandlig‘ va junundin o‘zga yo‘qtur”, [Навоий 81.] deya ta’riflaydi. Shuningdek, Hasan Ali Jaloirning oilasi bilan Alisher Navoiy ukachi Darveshali o‘rtasida qarindoshchilik munosabatlari ham o‘rnatilgan edi. [Навоий 133.]

Mariya Sabtelni uning shoirlik mahoratiga baho berar ekan, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning tiriklik chog‘ida o‘z-o‘zini temuriylar saroyi doirasida chegaralab qo‘ygan professional shoir edi, [Sabtelni 1979. 77.] deb xulosa chiqaradi.

Uchinchi shoir – Osafiy (vaf.1515). Mariya Sabtelni Osafiyning hayot yo‘liga oid ma‘lumotlarni Xondamirning “Habib us-siyar”, Som mirzoning “Tuhfai Somiy” asarlaridagi tarixiy sanalarga suyangan holda belgilaydi. Bunga ko‘ra Osafiy,

Xondamir asarida 1515 yil, Hiraviy asarida esa 1517 yilga to‘g‘ri kelganini solishtiradi. “Majolis un-nafois” tazkirasi nashri izoh ko‘rsatkichlarida uning vafoti 1517 yil deya qayd etilgan.

Osafiyni “Boburnoma”da Husayn Boyqaro shoirlari guruhining to‘rtinchi o‘rnida ta‘riflanganini ko‘rishimiz mumkin. “Majolis un-nafois” tazkirasining ikkinchi majlisidagi shoirlarning uchinchi bo‘lib tasviri berib o‘tiladi. Alisher Navoiyning bu shoir hasbu holini yaratishda asosan tanqidiy ruhda o‘g‘itlarni keltirib o‘tganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin: “Ammo ne tab’in ishga buyurur, ne hofizasini. Yatimvashlik va ra‘nosifatliq va xudoroylik bila avqotin zoye’ qilur... Yaxshi abyoti bor”. [Навоий. 1997.41.] Osafiyning fors va turk tillaridagi baytlaridan yaxshi namunalar ham keltirib o‘tadi. Garchand Osafiyni ta‘bini tez-tez ishga solmaganlikda ayblasa-da, Mavlono Kavsariyning nazm qobiliyatini shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatganini ham uqtirib o‘tgan: “Kichikdin beri tab’ida nazm aytur qobiliyati bor. Ammo mashg‘ulluq qilmas. Xoja Osafiyning musohiblig‘i davlatidindurkim, goh-gohi she’r aytur”. [Навоий. 1979. 48.]

Davlatshoh Samarqandiyning tazkirasi xotimasida alohida faxr bilan tilga olingan olti adib qatorida uning ham ta‘rifi berilgan edi.

Bobur ham uning she‘rlariga tanqidiy ruhda yondashib, rang va ma‘nidin xoli emaslini ishq va holdin bebahra, [ Бобурнома. 2002.138.] degan edi.

Mariya Sabtelning fikriga ko‘ra, Osafiyning temuriylar tomonidan Hirotda o‘tkazdirilgan majlislarda, xususan, Alisher Navoiy va Majididdin tomonidan o‘tkazilgan majlislarda qatnashganiga hamda Abdulloh Marvoridning xabariga urg‘u bergan holda uni Navoiy she‘riyat davrlarining a‘zosi, [ Sabtelni 1979. 81.] deyish mumkin. Shu bilan birga olimi Osafiyning shayboniylar davridagi faoliyatini qanday kechganini o‘rganish maqsadida Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asariga murojaat qiladi va uni bu paytga qadar Badiuzzamonga xizmat qilishiga qaramay, Hirotda qolgani va Shayboniy davrida juma namozidan so‘ng Binoiy tomonidan o‘tkazilgan adabiy majlisda uning ham ishtirok etganiga ahamiyat beradi.

To‘rtinchi shoir – Binoiy.(vaf. 1513) Bu shoirning nomi bugungi kungacha Alisher Navoiy bilan kechgan zarofatli hangomalar tufayli juda mashhur bo‘lib ketgan.

“Binoiy haqida Davlatshoh Samarqandiydan boshqa o‘rganayotgan barcha adiblarimiz tilga oladi. Davlatshoh u haqida to‘laqonli ma‘lumotga ega bo‘lmagan bo‘lishi mumkin”. [ Sabtelni 1979. 83.] Umumiy ma‘noda, Mariya Sabtelni ham Navoiy va Binoiy o‘rtasidagi hangomalar va tortishuvlar tasvirlangan asarlar

e’tiborini tortadi. Bu manbalar orasida mana shu ikki mutafakkirning bahslariga ko‘p sahifa ajratilganlaridan “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlari edi, albatta,

Bobur “Boburnoma”da shoir Binoiyga tavsif berishda boshqa shoirlar ijodini baholashda kuzatilganidek, har bir jihatini qamrab olishga harakat qiladi. Bobur Samarqandni ikkinchi marta egallagan paytda uning qoshiga kelgan Binoiydan sarkarda Qosimbek qattiq shubhalanadi. Boisi Binoiy bundan avval Shayboniyxon huzurida ham xizmatda bo‘lgan edi. Qosimbekning gumonsirashi tufayli Binoiyni Shahrisabzga jo‘natadilar. Lekin ko‘p o‘tmay shoir Boburshohning ahli nazmga bo‘lgan muruvvati ustunlik qilib, uni yana Samarqandga chaqirib oladilar: “Necha kundin so‘ng chun fazilatliq kishi edi, gunohe sodir bo‘lmaydur edi, Samarqandg‘a kelturduk”. [ Бобурнома. 2002.81.] Yuqorida Navoiy sanab o‘tgan Binoiyning barcha ijobiy xislatlarini Bobur fazilatliq kishi birikmasida mujassamlashtirgan. Binoiy saroyga keltirilgach, temuriylarning yana bir dilkusho shahzodasi huzurida ijod bilan band bo‘ladi, bir necha marta Bobur sharafiga qasida va g‘azallar bitadi. O‘z-o‘zidan nazmga oshufta ko‘ngilli Bobur ham qalamini ilk bor mana shu mushoiralarda sinab ko‘rib, badihalar aytadi. Jumladan, Binoiyning moddiy jihatdan abgor holini arz qilib aytgan “Ne g‘alla maro k-az-o‘ taponam no‘shid” deb boshlanuvchi forscha ruboiysiga quyidagi turkiycha ruboiy bilan javob beradi:

Ishlar bori ko‘nglungdag‘idek bo‘lg‘usidur,

In‘omu vazifa bori buyrulg‘usidur.

Ul g‘allau muhmalki deb erding, berdim,

Muhmalg‘a bo‘yu g‘alladin uy to‘lg‘usidur.

Ushbu ruboiyga Binoiyning qofiyani radif qilib bergan javobiga davradagi Xoja Abulbaraka Firoqiy e’tiroz bildirib, o‘zi o‘sha qofiya va radifda javob qaytaradi:

Bu javrki qildi davr so‘rulg‘usidur,

Sultoni karam bu uzrni qo‘lg‘usidur.

To‘kulgan agarchi to‘lmas, ey soqiy,

To‘kulgonimiz bu davrda to‘lg‘usidur. [ Бобурнома. 2002. 82.]

To‘xtovsiz feodal urush-janjallar tufayli Xuroson va Movoraunnahrning to‘zg‘ib ketgan yirik fozillar, ilm va ijod ahli navbatdagi Samarqand taxtiga da’vogar temuriyzoda Boburning huzurida umid bilan yig‘ilgan, Bobur ham ularga katta rag‘bat bilan xush munosabatda bo‘lgan edi. Ana shu ikki tomonlama ishonch va rag‘bat tufayli iliq adabiy muhit shakllangan hamda mazkur jarayon ijodiy kechalarda shoirlar mahorati va kamoloti uchun xizmat qilgan. Binoiyning shaxsiyatini fazilatliq deb baholagan Bobur o‘sha yuzma-yuz mushoiralarda uning insoniy siyrati va shoirlik mahoratini yaqindan baholay olgan edi. Binoiyning taqdir yo‘li murakkab



kechgani haqida Hirot adabiy muhiti doirasida yana bir karra batafsilroq so‘zlaydi. “Boburnoma”da Binoiy uchun ajratilgan maxsus lavha ikki sahifadan oshiq joy egallaydi. Navoiy kabi Bobur, avvalo, uning tug‘ilgan shahri, Hirot ekanligi, otasining kasbi binokor bo‘lgani bois shu taxallusni qo‘llaganini aytadi. “Majolis un-nafois”dagidek, Bobur ham shoirlarning taxallusi ma’nosi va sabablariga e’tibor qaratadi. G‘azaliyotida rang va hol bor deyish asnosida betakror badiiy san’atlar, ilohiy va insoniy ishq kechinmalarining yaxshi badiiyat kasb etgani ma’lum bo‘ladi. Bobur uning devoni borligini ham alohida uqtiradi. Demakki, uning she’riyati hajmi kattalashgani va o‘zining ijodda ulg‘aygani devon tartib berishiga turtki bergan. O‘rta asrlar turkiy she’riyatining asosiy jihati shundaki, shoirlarning ma’lum bir kamolotga yetgan davrida devon tuzish an’anasi to‘liq shakllangan edi.

Devonda mumtoz she’riyatning barcha faol janrlari jamlangani sababli, u orqali shoirning mahoratini to‘laligicha his qilish va baholash imkoni vujudga kelgan. Shu sababdan ham usmonli turkiy adabiyotshunoslari tomonidan bu davr adabiyotiga nisbatan umumlashtirilgan holda “devon adabiyoti “ [ Islom ensiklopediyasi. 386.] atamasi ham qo‘llangan edi. Bobur Binoiyning masnaviylari haqida gapirar ekan, ularning birortasining nomini keltirmagan holda tahlil qiladi: “bir masnaviysi bor, mevalar bobida, mutaqorib bahrida, bemuhassal nima debtur, bekora qilibtur. Yana bir muxtasar masnaviysi bor, hafif bahrida. Yana bir ulug‘roq masnaviysi bor, ul ham xafif bahrida, bu masnaviyni so‘ngralar tugatib edi”. [ Sabteln 1979. 138.] Bobur bu sanalgan uchta masnaviy bilan to‘liq tanishgan bo‘lsa-da, har biriga mufassal to‘xtalmaydi. Biroq vazni keltirilgan masnaviylardan faqat bittasining mazmun darajasi aniq, ya’ni mevalar mavzusida. Boburga masnaviydek yirik janrni mevalar mavzusiga bag‘ishlanishi g‘alat tuyulgani aniq, shuning uchun ham bekora qilibtur, deydi. Lekin mana shu o‘rinda Bobur bergan ma’lumotga tayanib, shoir Binoiyning novatorlik izlanishi, o‘ziga xoslikka intilish xususiyati ochilmoqda. “Alisherbekka xeyli mutaarriz ekandur. Bu jihatdin xeyli jafolar tortdi” jumlasini “Majolis un-nafois”da aytilgan “...faqr tariqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortdi”degan fikrga mushtarakdir.

Demak, Navoiy va Binoiy orasidagi ziddiyatdan aynan Binoiy ko‘p aziyat chekkan. Bobur bu ikki shoir o‘rtasidagi ziddiyatning sabab-ildizini aytmagan holda, o‘z fikrini bildiradi, Navoiy esa Binoiyning biror ustod tutmaganini va oqibatda ko‘plab xatoliklarga yo‘l qo‘ygani haqida gapiradi. Boburning Navoiy bilan Binoiy o‘rtasidagi bo‘lgan ikki (Shatranj majlisi va polone Alisheriy bilan bog‘liq) hangomadan Navoiyning bizga ma’lum bo‘lmagan kundalik turmushdagi so‘zamolligi va oddiy insoniy hajvga munosabati ma’lum bo‘ladi. Binoiy

javoblaridan esa, Hirot ahli “nozik mijoz” deya hayiqadigan yirik davlat arbobiga tap tortmay, samimiy hazillar bilan jig‘iga tega oladigan sho‘x tabiatli, qiziqqon shoir gavdalanadi.

Haydar mirzo “Tarixi Rashidiy”da Binoiyni “fozil va shoir” deya ta’riflaydi. Qisqa ta’rifdan so‘ng, Haydar mirzo Binoiyning birorta asarini sanamagan holda u bilan Navoiy o‘rtasidagi fikriy janglarga, mutoyibalarga o‘rin ajratadi. (bu haqda tadqiqotning narigi fasllarida chuqurroq so‘z yuritganmiz) “Tarixi Rashidiy”da Binoiy va Navoiy o‘rtasidagi hangoma asosida bizgacha rivoyat asosida yetib kelgan noma’lum qalandardan sotib olingan quyidagi baytning muallifi Mavlonoh Sohib Doro ekaniga guvoh bo‘lamiz:

Ko‘kragimdur subhning pirohonidin chokrok,  
Kiprigim shabnam to‘kulgan sabzadin namnokrok\*.

[ Тарихи Рашидий. 2011.286.] (Mazkur baytning muallifi va uning Alisher Navoiy nomiga qanday o‘tib qolgani borasida bir necha xil ilmiy farazlar ilgari surilgan. Xususan, “El desa Navoiyni” nomli rivoyatlar to‘plamida (T. Cho‘lpon. 1991. 7 - B.) Alisher Navoiyning ushbu baytni Samarqandda tanishgan samarqandlik tilanchidan keyinchalik Hirotga qaytgach, bir uy-joy, bitta tegirmon va eshak hisobiga sotib olgani haqida yozadi. Adabiyotshunos R.Jabborov esa “Tarixi Rashidiy” muallifining fikrlarini qo‘llab quvvatlaydi. Olim asos sifatida 1471 yilda tuzilgan “Oqqo‘yunlilar devoni”da mazkur g‘azal 107– o‘rinda [Навоий А. 1997. 198 ] (31b-32a) keltirilgan).

“Tarixi Rashidiy”dagi bu ma’lumot Binoiy portreti orqali Navoiy ijodiga oid ana shu yangi jihatni ochishga ham xizmat qilgan. Bu ikki yirik asarlardan Navoiy va Binoiy o‘rtasidagi hazillar tufayli kelib chiqqan ziddiyat fonida Binoiy fe’li sajiyasida qaysarlik va betgachoparlik bo‘rtib turgandek taassurot qoladi kishida. Adabiyotshunos olim A.Ibragimov Binoiy va Navoiy o‘rtasidagi adabiy bahslarning chuqurlashib, ziddiyatga aylanib ketishiga sabab atrofdagilarning qutqusi deya xulosa chiqaradi. A.Ibrohimov “Badoye’ ul-vaqoye” ning A.N.Boldirov tomonidan tayyorlangan tanqidiy matniga tayangan holda, asarda Hirotga qaytishni orzu qilgan Binoiyning Navoiyga bag‘ishlab “Majma’-ul-g‘aroyib” qasidasini yozgani, qasidada Navoiydan uzr so‘rab tovba qilgani hamda shu ziddiyatga undagan amirlar haqida bayon qilganini ta’kidlaydi. [ Иброҳимов. 1976. 43.] Ilmiy-tanqidiy matnda qasidaning 115 bayti keltirilgan bo‘lib, unda Binoiy va Navoiy o‘rtasidagi samimiy do‘stona munosabat haqida so‘z boradi.

“Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarida Binoiy ta’rifi keltirilgan o‘rinlardan adabiy davralarda Navoiyga tengma-teng fikriy mubohasaga kirisha olgan

bu shoirning faqatgina ichki siyratidagi latiflik va quvnoqlikka ko‘p urg‘u berilgan. Bobur tahlilida Binoiy obrazi orqali urushlar girdobida qolgan Movoraunnahr va Xuroson fazl ahlining tortgan mashaqqatlari ko‘z oldimizga keladi. Qo‘lma-qo‘l bo‘lgan taxt mojarolari va saroyda tez-tez yangilanadigan muhitning ijod ahli ravnaqiga aks ta’siri namoyon bo‘ladi; Bobur Binoiy ijodiga bergan bahosidan uning g‘azaliyoti, devon va yirik masnaviylar yaratgan zahmatkash ijodkorligi ma’lum bo‘ladi. Garchand, bu masnaviylar Bobur tomonidan tanqid qilingan bo‘lsa-da, ularning mavzu jihatidan yangiligi shoirning taxayyul olami keng ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, Alisher Navoiyning Binoiyga bergan ta’rifida unga ustoz va murabbiylik nuqtai nazari bilan yondashuv bo‘lganini nazardan qochirmasligimiz kerak: “Bu sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo‘q erdi, o‘z boshicha qilg‘on uchun hech foyda bermadi” [Навоий. 1997. 41.]

Mariya Sabtelni Binoiyning temuriylardan so‘ng shayboniylarga xizmat qilganini, o‘zi tug‘ilgan shahar Hirot saroyidagi shoirlar qatorida faol bo‘lganini [Sabtelni. 1979. 85.] Keyingi yozilgan asarlar birining muallifi Zayniddin Vosifiy [Восифий. 1979.215] ham tasdiqlaganini ta’kidlab o‘tadi.

Beshinchi shoir – Sayfiy Buxoriy ( vaf.1503/4 ). Bu shoirni o‘rganishda Mariya Sabtelni asosan Bobur, Xondamir va Haydar mirzolarning asarlariga murojaat qiladi va shular asosida uning hasbu holiga oid ma’lumotlarga oydinlik kiritishga harakat qiladi: “Sayfiy Buxoriy Bobur, Xondamir va Muhammad Haydar tomonidan tilga olinadi, lekin Davlatshoh va Som Mirzolar bu haqda gapirishmaydi. Bobur Sayfiy Buxoriyni Husayn Boyqaro shoirlari qatoriga kiritadi. Asli Buxorolik bo‘lgan Sayfiy Husayn Boyqaro davrida Hirotga o‘qish uchun kelgan va Alisher Navoiydan homiylik topgan. U Alisher Navoiy davrasiga mansublikdan tashqari, Husayn Boyqaroning o‘ziga ham xizmat qilgan” [Sabtelni. 1979. 85.]

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois”da uning turli kasb egalariga bag‘ishlab yozgan devonini ma’qullaydi: “Va san’at va hirfa ahli uchun ham ko‘p latofatlik nazm qilibtur”. [Навоий. 1997.40.]

Bobur Sayfiy Buxoriyning ko‘p kitob o‘qishini va bahslarda o‘sha kitoblar ro‘yxatini ham keltirishini istehzo bilan tilga oladi.

“Tarixi Rashidiy”da Haydar mirzo shoir Sayfiy haqida yozar ekan, uning ijodida o‘ziga xoslik masalasini alohida yoritadi. Boshqa tazkira va manbalarda, xususan, “Boburnoma”da ham aytilganidek, Sayfiy masalchilikda juda mashhur bo‘lgan. Haydar mirzo Sayfiyning masalchilik mahoratini tavsiflashda e’tibor qilgan

jihat shundaki, u dastlab masallar yaratganda Tusiya taqlid qilgan, keyinchalik esa undan o‘zib ketishga muvaffaq bo‘lgan ekan. Bu kabi qiyosiy xulosalar ham Haydar mirzoning munaqqidga xos nozik kuzatishidan dalolatdir. Ahli ilm va ahli shuaroning ijodi boshlanishida o‘zgalarga taqlid qilishi va keyinchalik o‘z usulini topa bilishi ham murakkab jarayon ekanligi anglashilmoqda. Sayfiyning ijodiga xos boshqa xususiyatlarni ochish maqsadida uning devonidan she‘riy parcha keltiradi. Bu parcha vositasida Haydar mirzo Sayfiy ijodining yana bir novatorona jihatiga e‘tiborimizni tortadi. Uning guvohlik berishicha, Sayfiy hunarmandlar uchun she‘rlar yozib, maxsus to‘plam tuzgan va unga “Badoyi” deb nom bergan. Darhaqiqat, Bobur ham Sayfiyning hirfagarlar uchun yozgan devonini yodga olgan edi. Biroq Haydar mirzo bizga bu ma‘lumotni yanada kengroq tarzda she‘riy parcha bilan dalillaydi:

Chu ishq kallapaz dar gardan aftod,

Dilo, xush bosh non dar ravg‘an aftod.

Buti pardozgaram ko‘ba kason menozad,

Hech ba holi mani xasta namepardozad . [Тарихи Рашидий. 2011. 81.]

Tarjimasi: kallapaz ishq tushdi bo‘yinginam boshvoqqa, Yayragil, ko‘nglim, tushdi axir nonginang yoqqa. Pardozchi sanam doim o‘zgalar xizmatida, men sho‘rlikni bezamas bo‘lsa el izzatida.( tarj. Muhammad Niyoz Abdulg‘afur o‘g‘li)

Bizning davrimizgacha yetib kelmagan ushbu devon haqida berilgan xabardan Hirot muhitida shoirlarning devon tuzish imkoniyatlari kengaygani va ularning maxsus yangi mavzular doirasida ham badiiy mahoratini ko‘rsatish uchun yaxshi adabiy maydon vazifasini o‘taganligi ayon bo‘lmoqda.

Mariya Sabtelni Sayfiy Buxoriyning manbalarda qayd etilgan eng ko‘zga ko‘ringan xususiyati uning she‘riyatida matal uslubining borligi va turli kasb-hunar egalarini mavzu qilib olib, devon yozganligidir, deya ta‘kidlaydi. Shu bilan birga olim bu shoirning Husayn Boyqaro saroyiga yaqinlashishi haqida Abdulloh Marvorid va Zayniddin Vosifiy asarlariga ishongan holda, uni adabiy majlislarning doimiy ishtirokchisi deb hisoblash mumkin”, [ Sabtelni. 1979.85.] deydi.

Olima Hirot saroyi majlisining a‘zolarini o‘rganish asnosida quyidagi umumiy xulosalarga keladi:

-Manbalarda keltirilgan va qamrab olingan davrga kirgani ma‘lum bo‘lgan shoirlar aslida haqiqatdan ham o‘sha davra a‘zosi bo‘lganligi yoki yo‘qligini aniqlash ko‘p hollarda qiyin va hatto imkonsiz edi, chunki ular faqat nomi bilan tilga olinar edi. Biografiyalardan ko‘rinib turibdiki, birinchi darajali professional shoirlar sonidan oddiy shoirlar sonining ko‘pligi va temuriylar saroyining adabiy va madaniy faoliyatining yorqin manzarasiga qaraganda Alisher Navoiy davrasiga mansublik

nisbatan oz miqdorda edi. Qolaversa, bularning aksariyati ikkinchi darajali shoirlar yoki yarim a’zolik maqomidagi shoirlar bo‘lib, to‘garakka a’zo bo‘lgan bir nechta birinchi darajali shoirlar a’zo sifatida ko‘p qolmagan yoki qola olmagan ko‘rinadi.

-Alisher Navoiy davrasining ko‘p a’zolari oliy ma’lumotga ega bo‘lib, she’riy fazilatlar uchun emas, balki oilaviy yoki siyosiy aloqalari tufayli saroy hayotiga yaqin bo‘lishgan. Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, Husayn Boyqaro saroyida malik-ush-shuaroning alohida idorasi bo‘lmagan edi va temuriylar qulagandan so‘ng saroy adabiy hayotining an’anaviy pozitsiyasi shayboniylar tomonidan darhol qayta tiklangan.

-Shunday qilib, ushbu tadqiqotda foydalanilgan manbalar asosida Husayn Boyqaro saroyining a’zolik nuqtai nazaridan qat’iy nazar, uning she’riy doirasi sifati bilan emas, balki miqdori bilan maqtanish mumkinligi ko‘rinadi. U o‘zining ustunlik va yuksaklik aorasini berishida ko‘p jihatdan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ulkan yutuqlariga tayangan va u avlodlarga shunday taassurot qoldirgan. [Sabtelni. 1979. 96.]

### **Xulosa**

Demak, Mariya Sabtelnin Hirot adabiy muhiti, saroy majlislarining ishtirokchilarini aniqlashga harakat qilgan ekan, quyidagi usulda ish olib borgan:

- shoirlarning fe’li-sa’jiyasi, hasbu holini tiklashda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Fahriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Somiyning “Tuhfai Somiy”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” kabi tazkiralari tayanadi.

- ijodkorlarning Husayn Boyqaro saroyi majlislariga ishtirokchilik maqomini aniqlashda esa Boburning “Boburnoma”sida keltirilgan shoirlar ro‘yxatiga qarab ish tutadi. Sababi Bobur Hirotga borib bevosita o‘zi yashagan hamda shohlik nigohi bilan Hirot madaniy muhitini sinchiklab o‘rgangan edi.

- shoirlarning she’riy mahorati va zullisonaynlik, taxallus tanlash va devon tuzish kabi an’analarini o‘rganishda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasiga va Fahriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Somiyning “Tuhfai Somiy”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” kabi manbalaridan o‘rni bilan unumli foydalanadi.

- olimi ijtimoiy-siyosiy tuzumning shoirlar taqdiriga ta’siri, xususan, shayboniylar bosqinidan keyin ularning saroy majlislaridagi faollik masalalariga oydinlik kiritish uchun Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asariga tayanib xulosalar chiqaradi.

- Mariya Sabtelning xulosalariga ko‘ra, saroyga yaqinlik tushunchasi asosan nasabning ulug‘ligi va oliy ma‘lumotni olgan badavlat, o‘ziga to‘q kishilar tegishlidir. Shunga ko‘ra saroy shoirlarining sonidan ko‘ra sifatning farq qilishi, Hirot adabiy muhitining Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodiy, adabiy quvvati bilan o‘zining muhitini ushlab turishi haqidagi tahlillari o‘zini oqlaydi. Chunki o‘rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi hammaga ham birdek ilm olish va ijod qilish imkonini bermas edi, o‘z navbatida saroy hukmdorlari tomonidan homiylik va doimiy e‘tibor faqatgina shu atrofga taalluqli bo‘lgan ijodkorlarga tegishli bo‘lar edi.

Olimaning shayboniylar davrida saroy majlislari tezda qayta tiklandi, degan e‘tirofini nisbiy tushunishimiz kerak, chunki o‘zaro ro‘y bergan feodal urushlar ta‘sirida xalqning tinkasi qurigan, ijodkorlarning aksariyati boshqa shaharlarga bosh olib ketishga majbur bo‘lgan edi. Shayboniylarning saroy majlislarini qayta tiklashga urinishlari temuriylar madaniyatiga havas bilan qarashlarining mahsuli edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Islam ansiklopediyasi*. 1986. Istanbul: Milli egitim basimivi
2. Izzatillayev, P. 2022. *Eron navoiyshunosligi: tadqiq, talqin va tarjima*. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent .
3. Sabtelni, M. 1979. *The poetic circle at the court of the Timurid Sultan Husain Baiqara and its political significance*. -Harward .
4. Адизова, И. 2008. *Сўзумни ўқуб англагайсен ўзумни..* Тошкент: Ғ.Ғулом НМУ
5. Алишер, Навоий. 2021. *Оққуюнли мухлислар девони*. (1471 й) табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар А.Эркинов, Р.Жабборов. Тошкент: “Donishmand ziyosi”,
6. Болтабоев , Х. 2013. *Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси // “Жаҳон адабиёти”, № 2.*
7. Восифий З.М. 1979. *“Бадоеъ ул-вақоеъ”*. Тарж. Н.Норкулов. Фан. Тошкент:
8. Воҳидов, Р. 1984. *“Мажолис ун-нафос”нинг таржималари/ масъул муҳаррир: Б. Валихўжаев. Тошкент: Фан,*
9. Ганиева, С. . 2002 *“Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари” //Алишер Навоий ва форс-тожик адабиёти конференцияси материаллари, 30 январь;*
10. Жабборов, Р. 2021. *Алишер Навоийнинг “Оққуюнли мухлислар девони” ва унинг давр адабий муҳитида тутган ўрни*. Тошкент: “Donishmand ziyosi”,
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2002. *Бобурнома*. Тошкент: Шарқ НМАК.
12. Ибрагимов, А. 1976. *XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари*. Тошкент: Фан

13. Қораев, Ш. 2021. *Темурийлар даври адабий мажлислари: Алишер Навоий карашлари асосида*. Тошкент: “Donishmand ziyosi”,
14. Кудратуллаев, Х. 2018. *Бобурнинг адабий-эстетик олами*. Тошкент: Маънавият.
15. Курбонов, Б. 2022 *Мовароуннаҳр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | Issue*
16. Махмудов, У. 2022. *Темурийлар даври муношаотнавислигида матн тузиш анъанаси*. (Абдуллоҳ Марворид тўплами мисолида) филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Тошкент.
17. Маъдалиева, О. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи*. Тошкент. “Donishmand ziyosi”,
18. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар, Аёзий. 2011. *Тарихи Рашидий*. О.Жалилов нашрга тайёрловчи. Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ.
19. Навоий, А. 1997. “*Мажолис ун-нафоис*”. МАТ. Тошкент: Фан.
20. Туйчиева, О. 2021. *Тазкираларда ижодкор аёллар /монография /* Тошкент: Nodirabegim.
21. Ўзбек адабиёти тарихи. 1984. III жилд. Тошкент: Фан.
22. Ҳайитметов, А. 1996. *Темурийлар даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Фан.
23. Шайхзода, М. 1972. *Асарлар. 6 томлик. 4. Ғазал мулкнинг султони*. (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси). Нашрга тайёрловчи Н. Маллаев. Тошкент. Адабиёт ва санъат.
24. Эркинов, А. 2021. *Навоий ижодининг акс-садоси. Ҳиротдан Шероз томон: Алишер Навоий шеърининг Оққуюнлилар муҳитида кўчирилган ноёб қўлёзмаси (876/1471)*. Навоийни англаш сари. Анкара: АКСАГ.